
QO'SHTEPA TUMANIDAGI MAHALLALARDA IFTORLIK MAROSIMLARI O'TKAZILMOQDA



Qo'shtepa tumanida Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan muborak Ramazon oyida insonlar o'rtasida xayru saxovat va mehr-muhabbat rishtalarini yanada mustahkamlash maqsadida "Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi davlat birligi ramzi" shiori ostida mahallalarda iftorlik dasturxonlari yozilmoqda.

Jumladan, Qayrag'och mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan "Otalar oromgohi"da ham ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar hamda hududdagi nuroniy va faollar uchun iftorlik dasturxonlari yozildi.

Tadbirda tuman hokimi I.Novikov ham ishtirok etdi.

To'kin dasturxon atrofida jam bo'lganlar yurtimizga tinchlik, oilalarimizga totuvlik, ro'zg'orimizga qut-baraka, shunday ehsonlarga bosh-qosh bo'lib turgan barcha rahbarlar ishlariga rivoj tilab, duo qilishdi.

Bu kabi iftorliklar tumanimizdagi har bir mahallalarda davom etadi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-03-30 08:52:26